Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda innovatsion o'yin metodlarining ahamiyati	785
Ikromov Ilxom Muxamadrasimovich	
Tabiat tasvirining adabiy janrlarga ko'ra o'ziga xosliklari	790
Fozilova Mohigul Farxodovna	
Методические подходы к развитию прагматической компетентности старшеклассников на основе чтения аутентичных материалов	794
Исаматдинова Машхура Икромжон кизи	
O'zbek tilida "zahar" konseptining leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari	799
Shokirov Sherati Ibrohimovich, Baxramov Xabibillo Sadikovich	
Integrativ modulli o'qitish tizimi samaradorligining miqdoriy va sifat tahlili	803
Nurmanova Nazira	
Sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati	807
Toshova Shaxnoza Tojiorovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga harakatga doir masalalarni klaster metodida o'rgatish	811
Badalov Dilmurod Abdixalilovich	
Ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanishning o'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi didaktik asoslari	817
Ahmedova Adiba Ulug'bek qizi	
Philosophical Aspects and Analysis of the Regularities of the Formation of Geo-Economic Thinking	822
Ubaydullayev Islomjon Abdullayevich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlashning pedagogik asoslari	826
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	

Boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining (Media/Mass Communication) roli.....	831
Bo'ronova Dilrabo Ne'matullayevna	
Inkluziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish	835
Karimova Zulfiya Abduraxmanovna	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi.....	839
Murodova Sarvigul Raxim qizi	
Модернизация кадровой политики дошкольных учреждений через инновационные мониторинговые механизмы	843
Ким Нигора Каримовна	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini ergonomik yondashuv asosida rivojlantirish	847
Usmonova Xafiza	
Pedagogik improvizatsiya asosida talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	852
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish	857
Nurmatova Madina Odiljon qizi, Qo'shoqova Farangiz Azizbek qizi	
O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	861
Xaydarov Oxunjon Murodjonovich	
Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ahamiyati	866
B. Normamatova	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	869
Bahranova Hulkar Bahrn qizi	
Konvensial yondashuv asosida talabalarni mustaqil ta'lim olish samaradorligining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish.....	872
Berdiyev Bahodir Ravshanovich	
Kontekstli yondashuvga asoslangan o'quv-ijodiy faoliyatning turlari	875
Botirova Zilola Nodirovna	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....	878
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish	882
Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi	
Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....	886
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li	
Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....	891
M. Ibragimova	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida	894
Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji	900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni	903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida	906
Rashidova Xurriyat Sulaymonova	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi	



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA HARAKATGA DOIR MASALALARNI KLAUSTER METODIDA O'RGATISH



Badalov Dilmurod Abdixalilovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0003-0957-4916

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga harakatga doir masalalarni klaster metodi asosida tushuntirish masalalari yoritilgan. Maqola mazmunida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'qitiladigan "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fanida o'rganiladigan "harakatga doir masalalar" mavzusiga oid ilmiy-metodik ma'lumotlar bayon etilgan. Tadqiqotda harakatga doir masalalar oddiydan murakkabga tomon izchil yondashuv asosida tahlil qilingan bo'lib, tekis harakatdan tekis tezlanuvchan harakatga doir masalalarni yechishning amaliy modeli aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: vaqt, masofa, tezlik, tezlanish, klaster, moddiy nuqta, fizika, matematika, metod, axborot.

Abstract: This article examines the explanation of motion-related problems to primary school students based on the cluster method. The content of the paper presents scientific and methodological materials on the topic of "Motion problems" studied within the course "Mathematics and Methods of Teaching it" for students of primary education. The study analyzes motion problems using a gradual approach from simple to complex, presenting a practical model for solving problems ranging from uniform motion to uniformly accelerated motion.

Key words: time, distance, speed, acceleration, cluster, material point, physics, mathematics, method, information.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы объяснения задач на движение учащимся начальных классов на основе кластерного метода. Содержание работы включает научно-методический материал по теме "Задачи на движение", изучаемой в рамках учебной дисциплины "Математика и методика её преподавания" для студентов начального образования. В исследовании задачи на движение анализируются по принципу от простого к сложному, при этом представлена модель решения задач от равномерного движения к равнопеременно ускоренному движению.

Ключевые слова: время, расстояние, скорость, ускорение, кластер, материальная точка, физика, математика, метод, информация.

KIRISH

Respublikamizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimini to'liq axborotlashtirishni, an'anaviy o'qitish mazmunini qayta ko'rib chiqishni, shuningdek, o'quv fanlarini integratsiyalash hamda o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident qarori qabul qilindi ^[20].

Yurtimizda qisqa vaqt ichida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar yangilanayotgan O'zbekiston qiyofasining jahondagi nufuzini, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan mamlakat ekanligini yaqqol namoyon etib kelmoqda. Mustaqilligimizning 30 yilligi arafasida ikki yarim oy muddatda qurib bitkazilgan "O'zbekiston bog'i" va "Mustaqillik monumenti"ning o'ziyoq badiiy arxitekturasini, salobati hamda ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati bilan juda katta ramziy ma'no kasb etadi. Monumentda yurtimizning 3 ming yillik tarixi, ya'ni "Avesto"dan to hozirga qadar bo'lgan taraqqiyot namunalarini, ayniqsa, Yangi O'zbekiston fenomeni ifodasini topgan. Unda o'tmish va bugunni tutashtirgan tarixni, shu bilan birga istiqbolli kelajakni ko'rish mumkin. Ta'lim sohasidagi islohotlar ham keyingi besh yilda yangi qiyofa kasb etganligini faxr bilan e'tirof etish mumkin.

Birgina dalil sifatida Sh. M. Mirziyoyev Prezidentlik faoliyatining ilk kunlaridanoq ilm-fan va ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratganini ko'rsatish mumkin. Mamlakat rahbarining 30-dekabrdanoq Fanlar akademiyasi a'zolari, olimlar va professorlar bilan uchrashib, shaxsan suhbatlashgani davrida respublikamizda ilm-fan



inqirozga uchragan davr mavjud bo'lganini e'tirof etish joiz. Mazkur uchrashuv ilm-fan rivojiga yangi turtki berdi. Professor-olimlarning mashaqqatli mehnatini va mamlakat rivojiga qo'shayotgan ulkan hissasini munosib baholashga qaratilgan qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Natijada, fanimiz shiddat bilan rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarildi. Aytish mumkinki, ilm-fan va ta'lim sohasidagi islohotlar hozirgi kunda ham jadal davom etmoqda ^[1].

Bu holat, o'z navbatida, ta'lim muassasalarida yagona axborot-ta'lim muhitini shakllantirish, axborotlar bazasini yaratish va undan samarali foydalanish, o'quv hamda me'yoriy hujjatlarni fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda ^[2].

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan hayot sharoitida bolalarning ongiy rivoji yuqori sur'atlarda kechmoqda. Shu omillarni inobatga olgan holda, boshlang'ich sinflarda tekis tezlanuvchan hamda tekis sekinlashuvchan harakatga doir masalalarni targ'ib qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim salohiyati ushbu tushunchalarni o'zlashtirishga qodir ekanligi amaliyotda tasdiqlangan. Avvalambor, o'quvchilarga tekis tezlanuvchan hamda tekis sekinlashuvchan harakatga doir masalalarning sodda ko'rinishlarini taqdim etish lozim ^[3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'limda matematik kompetensiyalarni shakllantirish masalasi so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Ismoilov va Turayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda STEAM yondashuvi asosida tabiiy fanlarning o'zaro integratsiyasi o'quvchilarda mantiqiy va tizimli tafakkurni rivojlantirishda samarali ekanligi asoslab berilgan. Mualliflar matematika va tabiiy fanlar o'rtasidagi bog'liqlik harakatga doir masalalarni o'qitishda muhim metodik vosita bo'lishini ta'kidlaydilar.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligiga oid tadqiqotlarda Ismoilov va Djumaev matematik kompetensiyalarni shakllantirishda faol va interfaol metodlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, masalalarni model asosida tahlil qilish hamda klaster elementlari bilan boyitish o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv, ayniqsa, harakatga doir masalalarda tushunchalarni izchil shakllantirish imkonini beradi.

Klaster metodining pedagogik ta'limdagi o'rni Badalov tomonidan chuqur o'rganilgan. Tadqiqotchining ilmiy ishlarida klaster yondashuvi o'quv materiallarini tizimlashtirish, asosiy va ikkilamchi tushunchalarni aniqlash hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni ochib berishda samarali metod sifatida asoslanadi. Muallif boshlang'ich ta'limda klaster metodidan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishini qayd etadi.

Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limi metodikasiga bag'ishlangan Ismoilovning ishlari harakatga doir masalalarni o'qitish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. U situatsion va konstruktiv masalalardan foydalanish orqali o'quvchilarda masofa, tezlik va vaqt tushunchalarini shakllantirish mumkinligini ilmiy asoslaydi. Bu yondashuv o'quvchilarni keyingi bosqichlarda fizika fanini o'zlashtirishga tayyorlashda muhim didaktik omil bo'lib xizmat qiladi.

Fanlararo aloqadorlik va integrativ yondashuv masalalari Babayeva hamda Xakkulov va Babayeva tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning ishlarida matematik ta'limni boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirish, ayniqsa, harakatga doir masalalarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash orqali o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirish mumkinligi ko'rsatiladi. Bu esa klaster metodining boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llanishini metodik jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot jarayonida ma'lumotlar asosan pedagogik kuzatish, tajriba-sinov ishlari, so'rovnoma va o'quv faoliyati mahsulotlarini tahlil qilish usullari orqali to'plandi. Tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilariga harakatga doir masalalarni o'rgatish jarayonida klaster metodidan foydalanish samaradorligini aniqlashga yo'naltirildi. Pedagogik kuzatish usuli dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtiroki, tushunchalarni o'zlashtirish darajasi va masalalarni yechish jarayonidagi mantiqiy fikrlash holatini aniqlash maqsadida qo'llanildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida an'anaviy yondashuv asosida o'qitiladigan sinflar bilan klaster metodi asosida tashkil etilgan darslar natijalari o'zaro solishtirildi. So'rovnoma usuli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilarning klaster metodiga bo'lgan munosabati hamda mazkur metodning tushunarliklik darajasini aniqlash uchun xizmat qildi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, harakatga doir masalalarni o'zlashtirish darajasidagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Shuningdek, o'quvchilarning yozma ishlari va masala yechish natijalari diagnostik tahlil qilinib, klaster metodining masofa, vaqt va tezlik tushunchalarini tizimli shakllantirishdagi ta'siri aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari umimlashtirilib, ularning pedagogik samaradorligi xulosalandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tezlik (mexanikada) – moddiy nuqta harakatining asosiy kinematik ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, vektor kattalik hisoblanadi. U S , V , t parametrlari orqali aniqlanadi, bunda S – masofa, V – moddiy nuqta tezligi, t – vaqt tushunchasi sifatida qaraladi. Ma'lumki, fizika fani 6-sinf boshlab o'qitila boshlanadi. Harakat tushunchasi-ning boshlang'ich sinflarda o'rganilishi o'quvchilarga "masofa" va "vaqt" tushunchalarini singdirishga xizmat qiladi. Ma'lumki, yo'l formulasi $S = VT$ orqali aniqlanadi. Ushbu ishda esa mazkur formuladan foydalanmasdan, harakatga doir masalalarni yechish usullari yoritiladi [7].

1. Vertolyot har bir soatda bir xil masofani uchib, 2 soatda 460 km masofani o'tdi. U qanday tezlik bilan uchgan?
2. Velosipedchi bir xil tezlik bilan harakatlanib, 39 km masofani 3 soatda bosib o'tdi. Velosipedchi qanday tezlik bilan harakatlangan?
3. Vertolyot va velosipedchining tezligi, harakatlanish vaqti hamda bosib o'tgan masofalari jadvalda keltirilgan bo'lib, ushbu jadval asosida masalalarni tahlil qilish mumkin:

Tezlik	Vaqt	Masofa
230 km/soat	2 soat	460 km
13 km/soat	3 soat	39 km

Bu yerda masala jadval asosida ishlab chiqilgan bo'lib, masalaning mazmuni o'quvchilar uchun tushunarli holatda berilgan [2, 64].

Quyidagi masala ko'rib chiqiladi.

Masala: Neksiya avtomobili har soatiga 60 km yo'l bosadi. Mashina bir soatda, ikki soatda va hokazo vaqt oralig'ida qancha yo'l bosib o'tadi?

Yechish: Yechimini chizma orqali ifodalaymiz.




Chizmadan ko'rinib turibdiki, avtomobil har soatda bir xil masofani bosib o'tmoqda. Fizikada bu moddiy nuqtaning o'zgarmas harakati deb ataladi. Ushbu chizma o'quvchilarda tasavvurni shakllantirishga yordam beradi hamda turli savollar berish imkonini yaratadi [6].

Endi masalani murakkablashtiramiz, ya'ni tekis tezlanuvchan hamda tekis sekinlashuvchan harakatga doir masalalarni ko'rib chiqamiz [5].

Masala: Neksiya avtomobili birinchi soatda 60 km yo'l bosadi, keyingi soatlarda esa oldingi soatga nisbatan 10 km ko'proq masofani bosib o'tadi. 1-soatda, 2-soatda, 3-soatda va hokazo vaqt oralig'ida qancha masofa bosib o'tiladi? 1-soat bilan 3-soat oralig'ida qancha masofa mavjud? Shu kabi savollarga yechim chizma asosida ishlab chiqiladi [4].


Yechimi:



Ko'rinib turibdiki, har soatda bosib o'tilgan masofa 10 km ga oshib bormoqda.

1-masala: Poyezd A shahardan B shaharga tomon 60 km/soat tezlik bilan yo'lga chiqdi. U tezligini har soatda 5 km/soatga oshirib, 4 soat yo'l yurgandan so'ng manzilga yetib bordi. A va B shaharlar orasidagi masofa qancha? [8]

Mazkur masala modellashirish usuli orqali tushuntiriladi.






Modellashtirish usulida berilgan masalalar o'quvchilarning diqqatini jalb etadi, qiziqishini oshiradi hamda masalani yechishga faol undaydi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchi fizika fanini o'rganishdan avval, ya'ni boshlang'ich sinf bosqichidayoq fizika haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladi [9].


Masalaning qiyinchilik darajasi oshiriladi [22].

2-masala: A shahardan mototsikl 20 km/soat tezlik bilan B shahar tomon harakatlana boshladi. B shahardan "Matiz" avtomobili 60 km/soat tezlik bilan A shahar tomon bir vaqtda harakatni boshladi. Mototsiklchi har soatda tezligini 2 km/soatga, "Matiz" avtomobili esa 10 km/soatga oshirib bordi. Harakat boshlanganidan 3 soat o'tgach, ular orasidagi masofa 75 km qoldi. A va B shaharlar orasidagi masofa topilsin [20].



Masala: A shahardan Spark avtomobili 60 km/soat tezlik bilan, B shahardan Damas avtomobili 50 km/soat tezlik bilan bir-biriga tomon harakatlana boshladi. Ikki shahar orasidagi masofa 300 km. Ular tezligini har soatda 10 km/soatga oshirib borgan bo'lsa, 2 soatdan so'ng ular orasidagi masofa nechaga teng [21]?

Ushbu masalaning modellashtirilgan ko'rinishi quyidagicha ifodalanadi:



Yechish:

Spark -- $60 + (60 + 10) = 130$;

Damas-- $50 + (50 + 10) = 110$;


Spark+Damas -- $130 + 110 = 240$;

Jami masofa-(Spark+Damas)-- $300 - 240 = 60$ km


Javob: 60km masofa qoladi.

Tekis sekinlashuvchan masalalarni ham shu usulda berish o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lib, ularda mantiqiy fikrlash hamda mustaqil tasavvur qilish ko'nikmalarini shakllantiradi [10].

Masala: Ikki shahar orasidagi masofa 500 km. Ikki shahardan bir-biriga qarab ikki mashina yo'lga chiqdi. Birinchi mashinaning tezligi 80 km/soat, ikkinchi mashinaning tezligi esa 70 km/soat [23]. Ular tezligini har soatda 5 km ga pasaytirib borgan bo'lsa, 3 soatdan so'ng ular orasidagi masofa qanchaga teng [11]?




Ushbu masalalar shartini o'zgartirish ham juda oson kechadi. Bu o'qituvchi vaqtining tejallishiga yordam beradi. Masalan, yuqoridagi masala modulida bir belgining joyi o'zgartirilsa, masala mazmuni ham o'zgaradi [13].





Chizmadan masala shartining o'zgartirilgani ko'rinib turibdi. Ushbu chizma orqali ikki shahar orasidagi masofaning noma'lumliligi aks ettirilgan ^[14]. Chizmadan, shuningdek, harakatning qarama-qarshi yo'nalishda ekanligi ham yaqqol ko'rinadi.



Ushbu modul asosida quyidagicha masala tuzish mumkin ^[24].

A shahardan bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishda ikki mashina yo'lga chiqdi. Birinchi mashinaning tezligi 80 km/soat, ikkinchi mashinaning tezligi 70 km/soat. Ular tezligini har soatda 5 km ga oshirib borsa, bir soatdan keyin ular orasidagi masofa necha kilometr ga teng bo'ladi? Ikki soatdan keyin-chi ^[25]?

Biz ushbu maqola orqali o'quvchilarga boshlang'ich sinf bosqichidayoq fizikaviy tasavvurlarni uyg'ota olish imkoniyatini ko'rsatamiz ^[26].

Fizik jismlar deb tabiatda uchraydigan barcha jismlarga aytiladi. Masalan: quyosh, yulduzlar, sayyoralar, toshlar, idishdagi suv, xonadagi havo va hokazo. Jismlar sistemasi deb ayrim fizik hodisalar xuddi bitta jismdagidek namoyon bo'ladigan jismlar to'plamiga aytiladi. Masalan, avtomobil harakati ^[27]. Bunda avtomobilning barcha qismlari vaqt davomida ma'lum yo'l bosib o'tadi ^[28]. Shunday qilib, zamonaviy fizika materiya harakatining turli fizik shakllarini, ularning o'zaro bir-biriga aylanishini, shuningdek, modda va maydon xossalarini o'rganadi ^[12].

Fizika yunoncha "physis" – tabiat degan so'zdan olingan bo'lib, tabiatshunoslik degan ma'noni bildiradi. Fizika fanini birinchi bo'lib qadimgi yunon mutafakkiri Aristotel (eramizdan avvalgi 384–322-yillar) o'zining sakkiz tomlik asarida bayon etgan ^[29]. Fizik hodisalar deb moddani tashkil etgan zarralar o'zgarmay qolgan holda sodir bo'ladigan jarayonlarga aytiladi ^[30]. Masalan, toshning tushishi, g'ildirakning aylanishi, suvning qaynashi va muzlashi, ko'mir yonganda issiqlik ajralishi, lampochkadan yorug'lik chiqishi, radiodan ovoz chiqishi kabi jarayonlarda zarralarning ichki tuzilishi o'zgarmay qoladi ^[15].

Texnika va tabiatdagi yangi hodisalarning kashf etilishi hamda ularning amaliyotga joriy qilinishi natijasida fizikadan fizikkimyo, astrofizika, geofizika, biofizika va boshqa mustaqil fanlar ajralib chiqqan ^[16]. Asrimiz fizikasining yirik yutuqlaridan biri – kosmosni o'rganish natijasida shakllangan kosmofizika fanidir ^[17].

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchi fizika fanini o'rganishdan avval, ya'ni boshlang'ich sinfdayoq fizika fani haqida tasavvur hosil qilishi mazmuni hamda mohiyatini asoslash orqali amaliyotga tatbiq etishga doir ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi ^[18].

I–IV sinflarda matematikani o'rgatish jarayonida ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni samarali hal etish, avvalo, o'quvchilarning matematika kursi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir ^[19].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilariga harakatga doir masalalarni o'qitishda klaster metodidan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishini ko'rsatdi. Klaster yondashuvi orqali o'quvchilarda masofa, tezlik va vaqt tushunchalarini o'zaro bog'liq holda shakllantirish, harakat jarayonini model-lashtirish asosida mantiqiy fikrlash va mustaqil tasavvur qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligi aniqlandi. Mazkur metod harakatga doir masalalarni sodda ko'rinishlardan murakkab holatlarga izchil o'rgatishda o'quvchilarning bilimni anglash darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflarni bildirish maqsadga muvofiq:

- boshlang'ich sinflarda matematika darslarida harakatga doir masalalarni o'rganishda klaster metodidan tizimli ravishda foydalanish;
- dars jarayonida modellash va ko'rgazmali chizmalardan keng qo'llanish orqali fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida klaster metodiga oid amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish.

Ushbu yondashuv boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning umumiy bilim saviyasini va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismoilov, B., & Turayev, A. (2025). STEAM ta'limini joriy etishda "tabiiy fanlar"ning mohiyati. *Journal of Universal Science Research*, 3(5), 18–19.
2. Ismoilov, B. T. (2021). Calculation of the full energy of helio-like atoms using the perturbation theory development of mathematical competence of students in reshenii konstruktivnyx zadach. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 3(1), 3–7.
3. Tohirovich, I. B., & Navruza, S. History of Abdulla Qodiri's novel "The Days Gone By" and its translation into English. Atayeva Nilufar Saliyevna. Linguistic principles of research in modern terminology. Fozilova Makhina Adashevna. Classification of methods of...
4. Ismoilov, B., & Djumaev, M. (2023). Improving the methodological system for forming mathematical competences in future primary school teachers. *Science and Innovation*, 2(B3), 550–556.
5. Ismoilov, B. T. (2020). Methodology of transfer from a ball to a cube. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(12), 6–10.
6. Ismoilov, B. (2025). Shashka donachalari ishtiroki bilan tuzilgan konstruktiv masalalarni yechish metodikasi. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, 3(2).
7. Исмоилов, Б. Т. (2019). Использование ситуационных задач в ходе обучения математике в начальной школе. *Научные горизонты*, (5–2), 38–42.
8. Исмоилов, Б. Т. (2019). Методы решения проблемы обучения математике в начальной школе. *Научные горизонты*, (5–2), 32–37.
9. Исмоилов, Б. Т. (2022). Обучение будущих учителей начальных классов решению конструктивных задач по технологии счётчика воды. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(12), 867–872.
10. Исмоилов, Б. Т., Бадалов, Д. А., & Тураева, Г. Э. (2019). Постановка и решение задачи: найти площадь четырёхугольника по четырём сторонам. *Научные горизонты*, (5–2), 43–47.
11. Исмоилов, Б. Т. (2018). Проблема развития игры в истории педагогики. *Журнал по гуманитарным наукам*, 83.
12. Meyliqulova, M. A. (2024). 8-sinf o'quvchilar nutqini rivojlantirishda adabiyot darslarining o'rni. *Academic Research in Educational Sciences*, 5(CSPU Conference 1), 761–764.
13. Badalov, D. (2025). Pedagogik ta'limda klaster metodlarining dunyo mamlakatlari tajribasidagi o'rni. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, 3(3).
14. Abdikhalilovich, B. D. The validity of cluster methods in pedagogical education in Duna countries. *World Bulletin of Social Sciences*, 24, 73–77.
15. Исмоилов, Б. Т. (2019). Методы решения проблемы обучения математике в начальной школе. *Научные горизонты*, (5–2), 32–37.
16. Badalov, D. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirish usullari. *Bulletin of Scientific Research TUES*, 1(2), 152–155.
17. Abdixalilovich, B. D. (2024, January). Boshlang'ich ta'lim sohasida boshqaruv tizimining logistikasiga yondashish. In *International Conference on Interdisciplinary Science* (Vol. 1, No. 1, pp. 70–79).
18. Badalov, D. (2024). Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining texnologiyalarni o'rganishdagi klaster yondashuvlari. *News of the NUUZ*, 1(1.5.2), 51–53.
19. Badalov, D. (2025). Pedagogik ta'limda klaster metodlarining dunyo mamlakatlari tajribasidagi o'rni. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, 3(3).
20. Qarshiyeva, I. (2025). The reflection of educational values and moral issues in the works of Abdulla Avloniy. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(4), 731–734.
21. Qarshiyeva, I. (2025). Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarni o'rgatishdagi pedagogik muammolar. *Nauka i innovatsiya*, 3(15), 60–63.
22. Qarshiyeva, I. (2025). Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirishning shakl va vositalari. *Nauka i innovatsiya*, 3(13), 83–86.
23. Toshova, S. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlikka mehr uyg'otish orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirish. *Pedagogicheskaya akmeologiya*, 1(9).
24. Tojinorovna, T. S. (2024, January). Oilada farzandni kitobxonlik ruhida tarbiyalash usullari. In *International Conference on Interdisciplinary Science* (Vol. 1, No. 1, pp. 84–89).
25. Babayeva, M. A. (2025). Stages of creating software for the formation of professional readiness of students based on an integrative approach. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, 3(5), 350–353.
26. Xakkulov, Y. A., & Babayeva, M. A. (2025). Integrativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik jihatlari. *American Journal of Education and Learning*, 3(5), 948–953.
27. Abduvaitovna, B. M. (2022). The role of pedagogy and psychology in improving the methodology of teaching mathematics in general secondary schools on the basis of a competency-based approach. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 6, 37–40.
28. Babayeva, M. A. (2025). Xalqaro baholash dasturlarining ta'lim tizimidagi ahamiyati. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, 3(2).
29. Babayeva, M., & Abdullayeva, D. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni masalalar yechish orqali rivojlantirish. *Nauka i tekhnologiya v sovremennom mire*, 4(3), 116–119.
30. Babayeva, M. (2024). Ta'limda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning o'ziga xos pedagogik shartlari. *Pedagogicheskaya akmeologiya*, 2(10).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.